

Musayeva Mohiraxon Shoxobiddin qizi, FarDU Adabiyoshunoslik kafedrasida
tayanch doktoranti, Farg'ona, Uzbekistan
E.mail: mohiraxonmusayeva1@gmail.com



BADIIY IJODDA AN'ANA VA ADABIY TA'SIR MASALASI

<https://zenodo.org/records/19840568>

Annotatsiya. Ushbu maqola badiiy ijodda an'ana va adabiy ta'sir masalalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Adabiy jarayonning uzluksizligini ta'minlovchi an'ana va avlodlararo vorislikni ifodalovchi adabiy ta'sir hodisasining nazariy asoslari o'rganilgan. Maqolada o'zbek va jahon adabiyotshunosligidagi turli qarashlar asosida an'ana, adabiy ta'sir, izdoshlik va plagiat tushunchalarining mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, an'ana va novatorlikning o'zaro dialektik bog'liqligi, adabiy ta'sirning ijobiy (nazira, tatabbu, tazmin) va salbiy (plagiat) ko'rinishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: An'ana, adabiy ta'sir, izdoshlik, novatorlik, plagiat, badiiy ijod.

ВОПРОС ТРАДИЦИИ И ЛИТЕРАТУРНОГО ВЛИЯНИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТВОРЧЕСТВЕ

Аннотация. Данная статья посвящена анализу вопросов традиции и литературного влияния в художественном творчестве. Изучены теоретические основы традиции, обеспечивающей непрерывность литературного процесса, и литературного влияния, представляющего собой преемственность между поколениями. В статье на основе различных взглядов в узбекском и мировом литературоведении раскрывается сущность понятий традиции, литературного влияния, подражания и плагиата. Также проанализирована диалектическая взаимосвязь традиции и новаторства, положительные (назира, татабу, тазмин) и отрицательные (плагиат) формы литературного влияния.

Ключевые слова: Традиция, литературное влияние, подражание, новаторство, плагиат, художественное творчество

THE ISSUE OF TRADITION AND LITERARY INFLUENCE IN ARTISTIC CREATION

Abstract. This article is dedicated to the analysis of the issues of tradition and literary influence in artistic creation. The theoretical foundations of tradition, which ensures the continuity of the literary process, and literary influence, representing intergenerational succession, are studied. Based on various perspectives in Uzbek and world literary studies, the article elucidates the essence of the concepts of tradition, literary influence, adherence, and plagiarism. Furthermore, the dialectical relationship between tradition and innovation,

and the positive (nazira, tatabbu', tazmin) and negative (plagiarism) forms of literary influence are analyzed.

Keywords: Tradition, literary influence, adherence, innovation, plagiarism, artistic creation.

KIRISH

Adabiy jarayon uzluksiz va murakkab tizim bo'lib, unda har bir yangi badiiy ijod namunasi o'zidan avvalgi estetik tajribalar, g'oyaviy yo'nalishlar hamda shakliy-uslubiy izlanishlar bilan chambarchas bog'liq holda vujudga keladi. Shu ma'noda, adabiyot taraqqiyotini an'ana va adabiy ta'sir tushunchalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. An'ana adabiy jarayonda avlodlararo vorislikni ta'minlovchi, estetik xotirani saqlovchi omil sifatida e'tirof etiladi, adabiy ta'sir esa bir ijodkorning boshqa adabiy tajribalarni qabul qilishi va uni ijodiy jarayonda aks ettirishida namoyon bo'ladi.

Adabiy an'ana haqida so'z borar ekan, uning muayyan davrda shakllangan badiiy tafakkur, estetik qarashlar va ijodiy tajribaning keyingi avlod adiblari tomonidan ijodiy o'zlashtirilib, zamon talablari asosida davom ettirilish jarayoni ekanini ta'kidlash joiz. U adabiyot taraqqiyotida uzviylikni ta'minlab, badiiy shakl, mavzu, g'oya va ifoda usullarining barqaror rivojiga xizmat qiladi. Adabiy aloqalar va ta'sirlar adabiy jarayonning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, u adabiyotlarning o'zaro ta'siri va badiiy tajriba almashinuvida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqolada tadqiqot maqsadiga erishish uchun bir qator ilmiy-nazariy metodlardan foydalanilgan. Tavsifiy metod an'ana va adabiy ta'sir hodisalarining mohiyatini ochib berish, ularga berilgan turli ta'riflarni tizimlashtirish uchun qo'llanilgan. Qiyosiy-tahliliy metod adabiyotshunos olimlarning, jumladan D. Quronov, I. Sul-ton, N. Soatova va boshqalarning an'anaga oid nazariy qarashlari, shuningdek, xorijlik tadqiqotchilar K. Baldik va A. Nikolyukin kabilarning ishlarini qiyosiy tahlil qilishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijasida an'ana va adabiy ta'sir masalasiga oid quyidagi asosiy nazariy jihatlar aniqlandi va tizimlashtirildi.

“An'ana” tushunchasiga adabiyotshunos olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Izohli lug'atda an'ana (arabcha) nasldan naslga o'tuvchi qoida, udum, urf-odat va boshqa amallar sifatida izohlanadi.[1;83] Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov an'anani o'tmish adabiyoti to'plagan, vaqt sinovidan o'tgan va ahamiyatini yo'qotmagan, boqiy qadriyatga aylangan tajribalar qismi deb ta'riflaydi.[2;12] Akademik olim Izzat Sul-ton esa an'anaviylikni har bir milliy adabiyotda asrlar mobaynida yig'ilib kelgan estetik tajriba, ya'ni hayotning qanday tomonlarini tasvir etish hamda qanday usullar va vositalar bilan tasvir etish sohasidagi ijobiy yutuqlar sifatida baholaydi.[3;126]

I.Mannopov tadqiqotlarida ijodiy an'ana borliq va hayotni badiiy idrok etish, o'rganish, o'zgartirish sohasida davrdan-davrga, avloddan-avlodga o'tishi, zamon talabiga javob beradigan adabiy tajribalar asosida yuzaga kelishi ta'kidlanadi. U mumtoz san'atkor ijodiy tajribasida sinalgan, o'z badiiy-estetik qimmatini yo'qotmagan, o'z davrining dolzarb mavzulari, ifoda va tasvir vositalari, uslubiy rang-baranglik, xalqchil badiiy nutq san'atining zamondoshlar yoki keyingi avlod tomonidan qabul qilinishida namoyon bo'ladi.[4;231]

N. Soatova o'zining "An'anaviylik va vorislik" nomli monografiyasida an'anani dunyoni badiiy idrok etish sohasida davrdan-davrga, bo'g'indan-bo'g'inga o'tib kelgan adabiy tajribalar deb ta'riflaydi. Uning fikricha, an'ana turli-tuman javohirotda ega g'oyat katta bir xazina bo'lib, bu xazinadan har kim o'ziga keragini: birov syujet qurishdagi mahoratni, birov yorqin xarakterlar yaratishni, boshqa birov qahramonlar milliy ruhiyatini tasvirlash va hokazolarni oladi, o'rganadi. Shu yo'sinda an'andan foydalanish, ma'lum ma'noda badiiy tadqiqotga aylanadi.[5;68]

Xorijda amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham yuqorida berilgan ta'riflarga o'xshash fikrlar uchraydi. A. Nikolyukin tahriri ostidagi adabiy ensiklopediyada an'ana (lot. Traditio - topshirish, meros, rivoyat) umumgumanitar tushuncha bo'lib, madaniy xotira va vorislikni ifodalashi, ya'ni madaniy yutuqlarni, qadriyatlarni va tajribalarni avlodan-avlodga yetkazish jarayonini anglatishi qayd etilgan. An'ana madaniy rivojlanishning muhim omili sifatida har bir avlod tomonidan ijodiy o'zlashtiriladi, yangi tarixiy sharoitlarda boyitilib, yangidan paydo bo'lgan ijtimoiy va badiiy masalalarning yechimiga xizmat qiladi.[6;1089] Kris Baldik esa an'anani uslublar, usullar, konventsiyalar yoki e'tiqodlarning har qanday majmuasi bo'lib, ular o'tmishdan hozirgi davrgacha meros qilib olingan tarzda tasvirlanishini ta'kidlaydi.[7;260]

"Adabiy ta'sir" tushunchasiga kelsak, adabiy aloqalar va ta'sirlar adabiy jarayonning asosiy xususiyatlaridan biridir. U adabiyotlarning o'zaro uzluksiz ta'siri, bir adabiyotning boshqasining badiiy tajribasini o'zlashtirishi (yoki yengib o'tishi) bilan belgilanadi. A. Nikolyukin ta'kidlashicha, bu jarayonda ta'sir ko'rsatuvchi adabiyot, ta'sirni qabul qiluvchi adabiyot va vositachilik adabiyot farqlanadi.[8,464] Adabiy ta'sir hodisasi adabiyotlararo munosabatlarning muhim ko'rinishi bo'lib, u badiiy tajribaning uzluksiz almashinuvi va ijodiy o'zlashtirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Bu hodisa bir adabiyotning ikkinchisiga oddiy taqlidi emas, balki yangi estetik muhitda qayta talqin qilinishi bilan xarakterlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adabiy an'ana va ta'sir masalasi nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotshunosligining ham markaziy muammolaridan biridir. Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, an'ana statik bir hodisa emas, balki doimiy rivojlanib, yangilanib boruvchi, har bir avlod tomonidan ijodiy o'zlashtiriladigan dinamik jarayondir.

Xorijiy manbalarda ham an'anaga xuddi shunday yondashuv kuzatiladi. Nikolyukin tahriri ostidagi adabiy ensiklopediyada an'ana "madaniy rivojlanishning muhim omili" sifatida talqin qilinib, uning yangi tarixiy sharoitlarda boyitilishi va yangi masalalarning yechimiga xizmat qilishi alohida qayd etiladi. Bu fikrlar an'ana va novatorlik o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiy ta'sir esa bu jarayonning amalga oshish mexanizmlaridan biri bo'lib, u turli adabiyotlar va ijodkorlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydi. Zero, adabiy ta'sir adabiyot taraqqiyotining tarixiy davomiyligi va badiiy yangilanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholanadi.

Adabiyotda har qanday o'xshashlikni an'ana bilan bog'lab bo'lmaydi. Ba'zan ijod jarayonida ko'chirmakashlik, ya'ni plagiat holatlari ham uchrab turadi. Bunday hollarda muallif o'zidan oldingi ijodkor yaratgan obraz, g'oya yoki badiiy ifodani ijodiy qayta

ishlamasdan, deyarli o'sha holicha takrorlaydi. Natijada asarda yangi mazmun, yangi estetik qarash yoki individual yondashuv sezilmaydi. An'ana esa plagiatdan tubdan farq qiladi. Chunki an'anada avvalgi badiiy tajriba ijodkor tafakkuri orqali qayta talqin etiladi, zamon ruhiga moslashtiriladi va yangi badiiy sifat kasb etadi. Shuning uchun an'ana ijodiy davomiylik, plagiat esa badiiy tafakkurning to'xtashi sifatida baholanadi. Adabiy jarayonni rivojlantiruvchi kuch an'ana va novatorlikning uyg'unligidir. Agar an'ana ijodiy tafakkurning uzluksiz rivojini ta'minlasa, plagiat aksincha, bu jarayonga to'sqinlik qiladi.

Adabiy ta'sir va izdoshlik muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlardan birida badiiy ijodda boshqa asarlardan ilhomlanishni ikki guruhga ajratish masalasi ilgari suriladi. Birinchisi ijobiy ma'nodagi ta'sirlanish bo'lib, unga oid atama va istilohlar sifatida nazira, tatabbu, tavr, tavorud hamda tazmin kiritiladi. Salbiy ma'nodagi ta'sirlanishga esa adabiy ta'sirlanish chegaralariga rioya etilmaganda yuzaga keladigan adabiy o'g'rilik (plagiat) hodisasi kiritiladi.[9,46]

Lirikada ham an'ana avloddan avlodga o'tib keladigan badiiy tajriba bo'lib, u uzoq tarixiy jarayon davomida shakllanadi va sayqallanadi. Shu sababli mumtoz adabiyotimizda o'zidan avvalgi ijodiy merosga tayanmagan biror shoirni uchratish qiyin. Har bir ijodkor adabiy an'anani o'zlashtiradi va uni o'z davri, dunyoqarashi hamda estetik talablari asosida davom ettiradi. Biroq bu davomiylik ko'r-ko'rona takrori anglatmaydi. Ijodiy ta'sir natijasida yuzaga kelgan o'xshash obrazlar, tasvirlar va g'oyalar shoirning individual badiiy tafakkuri orqali yangicha mazmun kasb etadi. Ana shu jarayonda novatorlik vujudga keladi. Demak, novatorlik an'anani inkor etish emas, balki uni rivojlantirish, yangi bosqichga ko'tarishdir. D. Hamroyeva ta'kidlaganidek, an'ana she'riyatdagi uzviy silsilaviy hodisa va ma'lum bir tarixiy davrni o'tagan amaliy tajribalar natijasidir. Ammo ijodiy ta'sirdan yuzaga kelgan har qanday o'xshash obraz, tasvir, g'oyada o'ziga xos yangilik singdirilgan bo'ladi, ya'ni novatorlik an'ananing tadrijiy takomilidir.[10;8]

5. XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, badiiy ijodda an'ana va adabiy ta'sir adabiyot taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. An'ana o'tmishning eng yaxshi tajribalarini saqlovchi va ularni kelajak avlodlarga yetkazuvchi estetik xotira vazifasini o'taydi. Adabiy ta'sir esa bu tajribalarning turli adabiy muhitlar va ijodkorlar o'rtasida almashinuvini, boyishini va yangi bosqichga ko'tarilishini (novatorlik) ta'minlaydi. An'ana va novatorlik o'rtasidagi dialektik bog'liqlik adabiy jarayonning uzluksizligi va boyib borishining garovidir.

Ayni paytda, an'ana va plagiat o'rtasidagi chegarani aniq belgilash adabiy jarayonni ilmiy jihatdan to'g'ri tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Ijobiy adabiy ta'sir namunalari bo'lgan nazira, tatabbu va tazmin kabi an'analar ijodiy vorislikning yuksak ko'rinishlari sifatida qimmatlidir. Jahon adabiyotshunosligining ushbu masalalarga bo'lgan qiziqishi esa an'ana va adabiy ta'sir muammolarining universal ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Izohli lug'at. A., — B. 83.

2. Qur'onov, Dilmurod. Adabiy jarayon va an'ana. Toshkent, 2010. — B.12.
3. Sulton, Izzat. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, 1972. — B.126.
4. Mannopov. I.S. Yassaviylik adabiyotining genezisi, takomillashuvi va badiiyati. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Farg'ona, 2024. — B. 231.
5. Соатова Н. Анъанавийлик ва ворислик. Монография. Тошкент. Mumtoz so'z, 2019. — Б.68.
6. Қобилова З. Бадий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърини мисолида): Филол. фан. докт.(DSc)... дисс. — Фарғона, 2021. — Б. 46.
7. Ҳамроева Д.Ю. Бобораҳим Машраб ғазаллари поэтикаси (маъно, образ, истилоҳ мисолида). Филол. фан. номз. дисс. авт. - т., 2004. — Б.8.
8. Николюкин А.Н. Литературная энциклопедия. Терминов и понятий. Москва. НПК"Интелвак". 2001, стр. 1089.
9. Baldick Chris. The Concise Oxford dictionary of Literary Terms. Oxford University Press.2001, p. 260.
10. Николюкин А.Н. Литературная энциклопедия. Терминов и понятий. Москва. НПК"Интелвак". 2001, стр. 464.

Tabassum Xolmatova Baxtiyor qizi, Farg'ona davlat universiteti, magistratura bosqichi, 1-kurs magistranti
ORCID -0009-0009-8370-7223. Tabassumxolmatova60@gmail.com



BOBUR LIRIKASIDA FASLIY LAVHALAR VA ULARNING BADIY TALQINI

<https://zenodo.org/records/19840630>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida fasllar tasvirining poetik xususiyatlari, ularning ramziy-majoziy yuklamasi, inson ruhiyati bilan uyg'unligi hamda badiiy qiymati tahlil etiladi. Bobur she'riyatida bahor, yoz, kuz va qish obrazlari shunchaki tabiat manzarasi emas, balki shoirning ruhiy kechinmalari, vatan sog'inchi, muhabbat iztiroblari, hayot falsafasi va davr ruhiyatining badiiy ifodasiga aylanganligi ilmiy asosda yoritiladi. Fasllar tasviri orqali Boburning tabiat, inson va zamon uyg'unligini qay tarzda tasvirlagani ochib beriladi.

Kalit so'zlar, iboralar: Lirika, fasl obrazi, tabiat tasviri, ramziylik, poetika, ruhiy kechinma, vatan sog'inchi, badiiy qiymat.